



MAMLAKATIMIZDA INVESTITSIYA SIYOSATINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

Radjapov Muhammadjon Ergash o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Respublikamizdagi xorijiy va mahalliy investorlar tomonidan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarning tashqi muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini qurish ishlarini amalga oshirish, qulayroq investitsiya muhitini yaratish, chet el hamda mahalliy investorlar tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar, ularning tahlili hamda bu tahlillar asosida taklif va ilmiy tavsiyalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Investitsiya, investor, bozor munosabatlari, xorijiy investitsiyalar, Jahon savdo tashkiloti.

Bugungi kunda qulay sarmoyaviy muhit iqtisodiyotning barqaror yuqori rivojlanishini ta'minlash, hududlar va tarmoqlarga investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik faolligini oshirishning zarur shartidir. Bu muhim ishlab chiqarish va ijtimoiy loyihalarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kirib kelishiga xizmat qiladi, innovatsiyalar imkoniyatlarini kengaytiradi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sifatini oshiradi.

Ayni damda, yangilangan O'zbekistonga investitsiyalar oqimi kirishi avvalgiga qaraganda ancha ortgan hamda samaradorligi ko'tarilgan. Ushbu borada olib borilgan ishlar ham oz emas hozirda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 09.01.2020-yil PQ-4563 sonli "O'zbekiston Respublikasining 2020 - 2022-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini imzoladi. [Prezident qaror 2020] Ushbu qaror ijrosi doirasida, "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" deb e'lon qilingan 2019-yilda investitsiya loyihalarini amalga oshirish mexanizmlarini tubdan takomillashtirish va soddalashtirish, investitsiyalarni, avvalo, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o'zlashtirishni kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston ham Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish bo'yicha faol muzokaralarni qayta boshladi. JSTga a'zo bo'lish o'zbekistonlik tadbirkorlarga samarali va ishonchli import uskunalarini xarid qilish va sotib olish orqali tarmoqlarda ilmiy-texnikaviy



taraqqiyotni oshirish istiqbollarini oshirish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, JSTga kirishi bilan mahalliy eksportchilar tashqi bozorlarga chiqishlari osonlashadi.

O'zbekiston salohiyati kuchli makroiqtisodiy asoslarga asoslangan – bu kuchli ichki bozorga, nisbatan yosh va arzon ishchi kuchiga, boy tabiiy resurslarga, nisbatan diversifikatsiyalangan iqtisodiyotga va jadal rivojlanayotgan infratuzilmaga ega mamlakatdir.

Umuman olganda, O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikning afzalligi mavjud bo'lib, u amalga oshirilayotgan islohotlar bilan birgalikda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, xoh moliyaviy xizmatlar, xoh qurilish, xoh sayyohlik sohalarida imkoniyatlar ochadi.

Xalqaro fond bozoriga yanada chuqur integratsiyalashuv ishlari faollashtirildi. Shunday qilib, 2019-yil fevral oyida O'zbekiston umumiy qiymati 1 milliard dollar bo'lgan ilk 5 va 10 yillik yevroobligatsiyalarni joylashtirdi. Qo'shma Shtatlar to'rt marta obuna bo'ldi, natijada buyurtmalar Angliya, Yevropa, Amerika va Osiyodan 150 dan ortiq investorlar o'rtasida taqsimlandi.

2019-yilning noyabr oyida O'zbekiston tarixida birinchi marta korporativ yevroobligatsiyalar muomalaga chiqarilgani ham e'tiborga molik. Xususan, "O'zsanoatqurilishbank" London fond birjasiga 300 million dollarlik besh yillik xalqaro obligatsiyalarni chiqardi. Xarid qilish buyurtmalarining qiymati 4x qamrovi bilan 1,2 milliard dollarga yetdi.

Obligatsiyalarning muvaffaqiyatli joylashtirilishi ham O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga xalqaro investorlar tomonidan ijobiy baho berilganidan dalolat beradi.

Ma'lumki, investitsion muhit yaratilishi lozim bo'lgan hududda xorijlik investorlar ushbu hudud statistikasi va yashash sharoitlari va darajalarini chuqur tahlil qilib ko'rishadi. Ushbu tahlil potensial xorijiy investorlarni aniqlab berishda va o'z mablag'arini yo'naltirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi avvalroq eslatib o'tganimiz kabi yangi va keng qamrovli investitsiyalar uchun juda "och" desak mubolag'a bo'lmaydi. MDHning boshqa davlatlari qatori O'zbekistonda ham sobiq Ittifoq parchalanganidan so'ng real YaIMning




pasayishi kuzatildi. Biroq, hukumat bu pasayishni kamaytirish yoki hech bo'lmaganda sekinlashtirish uchun iqtisodiy islohotlarni juda konservativ tarzda boshqardi.

Iqtisodiyotni xususiy mulkning ochilishiga nisbatan ehtiyotkorona yondashuv O'zbekistonning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun jozibadorligini ikki jihatdan kamaytiradi:

- birinchi ta'sir bilvosita. Investitsion muhit bozorga moyil bo'lgan iqtisodiyotga qaraganda unchalik qulay emas;
- ikkinchi ta'sir to'g'ridan-to'g'ri. Strategik korxonalar, jumladan, tabiiy resurslar va kommunal sohadagi eksportga yo'naltirilgan muhim korxonalar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar uchun asosiy nomzodlardir, biroq bu tarmoqlar O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri investitsiya maqsadlari sifatida sezilarli darajada cheklab qo'yilgan. Butun Markaziy va Sharqiy Yevropa uchun o'tgan yillarda xususiylashtirish natijasida kelib chiqqan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar umumiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimining deyarli 49 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyoti, xususan, eksport tarmoqlari tovar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. O'zbekiston paxta va oltin qazib olish bo'yicha jahonda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi, rangli metallarni qazib oluvchi va qayta ishlovchi va tabiiy gaz ishlab chiqaruvchi yirik davlat hisoblanadi.

2022-yilda eksportning 55,34 foizini xomashyo tashkil etdi. Neft-kimyo sanoati ancha rivojlangan, avtomobil va maishiy texnika ishlab chiqarish sanoati hali o'z potensialini ko'rsatmadi, paxtaning atigi 15 foizi mahalliy sharoitda qayta ishlanadi. Mamlakatning kapital ishlab chiqarishi qishloq xo'jaligi mashinalari va samolyot dvigatellarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. [Statistika agentligi hisobot 2023]

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotiga 50 dan ortiq davlat investitsiya kiritayotgan bo'lib, xususan, Xitoy, Rossiya, Germaniya, Turkiya va Janubiy Koreya kabi davlat asosiy investor davlatlar hisoblanadi.



1-rasm. Iqtisodiyot tarmoqlariga jalb qilingan investitsiyalarni YaIMdagi ulushi, (foizda) [Statistika agentligi hisobot 2023]

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, 2020-yilgi pandemiya asoratlari tufayli O‘zbekistonga ham investitsiya hajmi biroz kamaydi. Ushbu ko‘rsatkich 2020-yilgi holatga ko‘ra 34,70 foiz tashkil etgan bo‘lsa, hozirga kelib 30,0 foiz ga yaqinlashgan. Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi YaIM hajmi ham yildan yilga yuqorilagani bois, ushbu tushish mamlakatimizga avvalgidek kuchli ta’sir o‘tkazgani yo‘q.

O‘zbekistonda 8000 ga yaqin xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona ro‘yxatga olingan bo‘lib, ulardan 5600 ga yaqini faoliyat ko‘rsatayotgani xabar qilingan. Ular orasida yirik xalqaro kompaniyalar (KIA, BAT Industries, Newmont va Coca Cola) bilan tuzilgan qo‘shma korxonalar ham bor. Biroq, umumiy hisobda, O‘zbekiston hozirgi vaqtda aholi soniga nisbatan va Markaziy Osiyoning qolgan qismi bilan solishtirganda mutlaq ko‘rsatkichlarda juda kichik to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini jalb qilmoqda.

1-jadval

O‘zbekiston iqtisodiyotga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi (2015-2023) [www.macrotrends.net hisoboti 2024]

O‘zbekiston to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	
Yil	Pul oqimi (AQSh dollari)
2023	7.5 \$ mlrd.
2022	2.5 \$ mlrd.



2021	2.28 \$ mlrd.
2020	1.73 \$ mlrd.
2019	2.32 \$ mlrd.
2018	0.62 \$ mlrd.
2017	1.80 \$ mlrd.
2016	1.66 \$ mlrd.
2015	1.04 \$ mlrd.

Yuqorida berilgan 1-jadvalda, mamlakatga kiritilgan investitsiya loyihalarining jami miqdori yillar davomidagiga taqqoslangan holda berilgan. Ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasiga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi tobora ortib bormoqda. Ammo, 2020-yilda sodir bo'lgan pandemiya oqibatida kiritilayotgan investitsiya hajmi yana sustlashib qoldi. Faqatgina 2023-yilga kelib to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi. Bunga asosiy sabab investitsiya muhiti yaxshilanyotganini ko'rsatishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak investitsiya bo'lmasa iqtisodiyot rivojlanmaydi. Investorlarga muhit, infratuzilma yaratsak, ish joyi bo'ladi, mahsulot ko'payadi, soliq tushadi. Korxonalarning faoliyatni yanada rivojlantirishga e'tibor qaratish kerak.

Investitsiyalarni rag'batlantirishda har bir ahdlashuvchi tomon o'z davlati qonunchiligi beradigan huquqqa muvofiq boshqa ahdlashuvchi tomon davlati investorlari investitsiyalarning o'z davlati hududiga kirib kelishiga yo'l qo'yadi va ularni rag'batlantiradi. Har bir ahdlashuvchi tomon o'z davlati qonunchiligi doirasida o'zaro investitsiyalarning xilma-xil shakllarini qo'llab-quvvatlaydi va iqtisodiy hamkorlikni boshqa ahdlashuvchi tomon davlati investor investitsiyalarni o'z hududida himoya qilish vositasi bilan ta'minlaydi.

Takliflarim shundan iboratki, xorijiy investorlar kengashi huzurida doimiy faoliyat yuritadigan investorlarning huquqini himoya qilish qo'mitasini tashkil etish, hamda davlat rahbari, bank-moliya, IT, konchilik, energetika kabi sohalar rivojiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar



1. “Xorijiy va mahalliy investorlarning investitsiya loyihalari tashqi infratuzilmasini yaratish xarajatlarini davlat tomonidan qoplab berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 306-son 07.06.2022. qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 390-son 10.05.2019 qarori.

3. <http://www.lex.uz>

4. <https://www.un.org/en/>

